

**PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINI TASHKIL QILISHDA  
AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI**

*Djalilov Nigmatulla Karimovich*

*Toshkent viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada prokuratura organlarining faoliyatini tashkil etish va prokuratura organlari faoliyatini davlat organlari tizimidagi tutgan o'rni va ahamiyatini rivojlangan davlatlar, ya'ni AQSh va Germaniya davlati misolida tahlil qilingan.

**Abstract:** This article analyzes the organization of the activities of the prosecutor's office and the role and importance of the prosecutor's office in the system of state bodies in the case of developed countries, namely the USA and Germany.

**Annotatsiya:** V dannoy state analiziruetsya organizatsiya deyatelnosti organov prokuratury, a takje rol i znachenie prokuratury v sisteme gosudarstvennyx organov na primere razvityx stran, a imenno SShA i Germanii.

**Kalit so'zlar:** atternoy faoliyati, Miranda qoidasi, statut huquqi, ayblov xizmati, fransuz modeli, solicitor-general

**Ключевые слова:** advokatskaya deyatelnost, pravilo Mirandy, statutnoe pravo, prokuratura, fransuzskaya model, generalnyy solisitor

**Key words:** attorney activity, Miranda rule, statute law, prosecution service, French model, solicitor-general

Hozirgi kunda nafaqat milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini chuqur tanqidiy tahlil qilish, balki, ilg'or xorijiy tajribani o'rganishni zamonning o'zi talab qilmoqda. Qolaversa, bugungi kunda har qanday Qonun va normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishdan oldin jahon tajribasini o'rganib chiqish amaliyoti yaxshi yo'lga qo'yilgan, chunki, sinalgan tajriba asosida ma'lum bir kiritilayotgan yangilikning kamchilik va ijobiy taraflarini tahlil qilish mumkin bo'ladi. "Prokuratura organlarining davlat va jamiyat hayotidagi rolini muhokama qilganda birinchi navbatda milliy huquqiy tizimdan kelib chiqish zarur. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, jahonda prokuratura organlarining xalqaro standarti yo'q. Chunki har bir davlat bu o'rinda o'ziga xos yo'nalishga ega. Misol uchun, AQSh, Estoniya, Qozog'iston kabi davlatlarda prokuratura davlatning ijroiya hokimiyati tarkibiga kirsa, Ispaniya, Bolgariya, Latviya, Gruziya kabi davlatlarda sud hokimiyati tarkibiga kiradi. Fransiya, Italiya, Ruminiya kabi davlatlarda esa prokuratura sud va ijroiya hokimiyati o'rtasidagi o'rinni egallaydi"[1].

Jahon mamlakatlarining davlat tuzilishiga asosan, davlat organlari tizimi ichida prokuraturaning o'rnidan kelib chiqqan holda ba'zi huquqshunoslar davlatlarni to'rtta

guruhga bo'lishadi.

1. Prokuratura adliya vazirligi bilan birlashtirilgan davlatlar, bularda adliya vaziri bir vaqtning o'zida bosh prokuror ham bo'lishi mumkin: AQSh, Polsha, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Daniya, Ruminiya, Yaponiya, Estoniya.

2. Prokuratura sud organlari tarkibiga kiradigan davlatlar: Ispaniya, Kolumbiya, Bolgariya, Latviya.

3. Prokuratura hech qaysi organ tarkibiga kirmaydigan alohida davlat hokimiyati hisoblanadigan davlatlar: Vetnam, Xitoy, Koreya xalq Demokratik Respublikasi, Kuba va Laos.

4. Prokuratura yoki unga o'xshash institutlar yo'q davlatlar. Buyuk Britaniyada prokuratura instituti yo'q. Davlat ayblovi xizmati degan organ tomonidan davlat ayblovi qo'llab-quvvatlanadi[2].

MDH hamda Lotin Amerikasi davlatlarida prokuratura institutining huquqiy asoslari va asosiy vazifalari konstitutsiyada belgilangan. Ularda prokuratura institutiga alohida boblar bag'ishlangan. Lekin ba'zi davlatlarda prokuratura totalitar tuzumning mahsuli deb qaralib, unga konstitutsiyada o'rin berilmagan (Polsha) yoki juda kam o'rin berilgan (Litva, Sloveniya, Slovakiya). Hatto, Rossiya Konstitutsiyasida prokuratura institutiga bittagina modda (129-modda) bag'ishlanib, unda prokuraturaning funksiyasi haqida so'z yuritilmay, faqat maqomi va tashkiliy asoslari haqida gapiriladi.

Xorijiy davlatlarda prokurorlarni lavozimga tayinlash (saylash) jarayoni turlichadir. O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra Prezident mamlakat Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini lavozimga tayinlaydi va keyinchalik Oliy Majlis tasdig'iga kiritadi. Belarus, Germaniya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Albaniya kabi davlatlarda ham Bosh prokuror shu tartibda saylanadi. Slovakiyada esa Bosh prokuror parlamentning taklifiga binoan Prezident tomonidan tayinlanadi. Rossiya va Gruziyada Bosh prokuror davlat rahbarining taklifiga binoan parlament yoki uning yuqori palatasi tomonidan tayinlanadi.

**AQSh prokuraturasi.** Hamma davlatlarda ham prokuratura konstitutsiyaviy institut hisoblanmaydi. Misol uchun, AQSh konstitutsiyasining II modda, 2-bo'lim, 2-bandidagina prokuratraga oid norma keltirilgan bo'lib unda faqatgina barcha vazirlarni lavozimga Prezident tayinlashi haqida so'z yuritiladi[3]. Mazkur bandga binoan, Amerika Qo'shma Shtatlari Senatining maslahati va roziligi (tasdig'i) bilan ba'zi asosiy amaldorlar, shu jumladan elchilar, vazirlar va federal sudyalar tasdiqlanishi kerak.

Amerika Qo'shma Shtatlar - dunyodagi fuqarolar prokurorlarni saylaydigan yagona mamlakatdir[4]. AQShda 1870-yildagi "Adliya vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi 19 banddan tashkil topgan Qonun Bosh prokurorning (Attorney-General) maqomi, vazifa va majburiyatlarini aniq belgilab bergan. Unga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlarining Bosh prokurori (Attorney-General) AQSh Adliya vazirligini

boshqaradi va Qo‘shma Shtatlar federal hukumatining bosh maslahatchisi hisoblanadi. Bosh prokuror AQSh prezidentining barcha huquqiy masalalar bo‘yicha asosiy maslahatchisi bo‘lib xizmat qiladi. Bosh prokuror Qo‘shma Shtatlar Vazirlar Mahkamasining qonuniy a'zovidir [5].

Mazkur qonunga binoan Bosh prokurorga yordamlashish va yo‘qligi yoki vaqtincha vazifasini bajara olmaydigan paytda uning barcha vazifa va majburiyatlarini bajarish uchun Bosh prokuror yordamchisi (solicitor-general) lavozimi joriy etilgan, bundan tashqari Bosh prokurorning ikkita maslahatchisi ham mavjud. Hozirda Merrik Garland 2021 yil 11 martdan beri Qo‘shma Shtatlarning Bosh prokurori bo‘lib ishlaydi.

AQShda Jinoyat-protsessual huquqining asosiy shakli (manbasi) – bu sud amaliyotidir. Sud tomonidan qabul qilingan qarorlar ham o‘zi uchun ham kuyi sudlar uchun xuddi shunga o‘xshash ishlar bo‘yicha bajarilishi shart. Huquqiy pretsedentning mazmuni aynan shulardan iborat. Ayrim hollarda, ayniksa AQShda yuqori sullar o‘z qarorlaridan erkin. Shunga qaramasdan, bunday istisno holat amaliyotda kamdan kam uchraydi. Huquqning yana bir manbasi sifatida qonun (statut huquqi) xizmat qiladi. Bunda sud amaliyotiga nisbatan qonunlar ikkinchi darajali ahamiyatga ega, chunki yuristlar uchun normativ hujjatlar sud qarorlari bilan sharhlanmagunga qadar hech qanday mazmunga ega emas. To‘g‘ridan to‘g‘ri kuchga ega bo‘lgan AQSh Konstitutsiyasi bunday holatlardan mustasnodir[6].

AQShda boshqacha holat mavjud. U yerda prokurorlik ko‘p hollarda shaxsning davlat hokimiyatidagi yuqori lavozimlarga erishishi uchun asos bo‘ladi. AQShning ba’zi shtatlarida esa prokurorlarga asosiy ishdan tashqari xususiy yuridik amaliyot bilan shug‘ullanishga ham ruxsat etilgan. Prokuratura tizimi markazlashtirilgan yoki markazlashtirilmaganligi ko‘p hollarda davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga bog‘liqdir. Agar davlat ma'muriy tuzilishiga ko‘ra federativ bo‘lsa, unda prokuratura tizimi to‘liq markazlashtirilmagan bo‘ladi [7].

AQShda prokuratura faoliyati “attorney faoliyati” deb yuritiladi. Ko‘pgina shtatlarda mahalliy darajadagi attorneylar aholi tomonidan saylanadilar va qoidaga ko‘ra u yoki bu siyosiy partiyaning qo‘llab quvvatlashi natijasida o‘z lavozimlarini egallaydilar.

Bizga ma'lumki, Yevropaning ko‘pgina davlatlarida prokurorlar Prezident tomonidan tayinlanadi va prokuratura markazlashgan organni tashkil etadi. Attorneylarning o‘ziga xos xususiyatlari esa ularning bir-biriga bo‘ysunmasligi va hisobdor emasligidadir. Endi AQShning attorney xizmati va roman-german huquq tizimiga kiruvchi davlatlardagi prokuraturaning markazlashgan holda faoliyat yuritishini tahlil etadigan bo‘lsak, AQShdagi mahalliy attorneylar mustaqil ravishda harakat qiladilar va bir-birlariga bo‘ysunmaydilar. Bu esa AQSh huquq tizimining, albatta, o‘ziga xos tomonlari ko‘p ekanligini va boshqa protsesslardan ajralib turishini anglatadi.

Amaliyotdan kelib chiqadigan bo‘lsak, prokuratura organlarining bir-biriga bo‘ysunish tartibida faoliyat yuritishi ko‘proq samarali ekanligini ko‘rishimiz mumkin, chunki jinoyatchilikka qarshi kurashda yagona markazlashgan strukturani harakati mustaqil strukturadan natijaliroqdir. Misol, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari hozirgacha uyushqoqlik, yagona bo‘ysunish hamda birlik asosida ko‘plab jinoyatchilikni fosh etishga qodir bo‘lyabdi desak bo‘ladi. To‘g‘ri, yagona bo‘ysunishga asoslangan prokuratura tizimi kamchiliklardan holi emas, masalan, quyi prokuratura organlari faqat buyruq va ko‘rsatmalar asosida ish yuritishga majbur bo‘ladi va mustaqilligi cheklanadi, bundan tashqari muayyan uyushgan jinoyatchilik bilan prokuratura organlarining yuqori mansabdor xodimlari til biriktirishi sodir etilgan jinoyatchilikni ochishga to‘sqinlik qilishi mumkin yoki umuman mazkur jinoyatlar (jinoyatlar zanjiri) ochilmasligi mumkin. Bunday holatlar amaliyotda kam kuzatilayotganligi tufayli yagona bo‘ysunish tartibidagi prokuratura tarqoq holdagi attorney xizmatidan yaxshiroq deb hisoblash mumkin.

Attorney xizmatining salbiy tomoni, uning yetarli darajada hisobdor emasligidir, bu degani attorney xizmatining ortiqcha bosh boshdoklikka olib kelishi ehtimoli kattaligidan dalolatdir. Agar har bir shtat guberniyalarda attorney xizmati o‘zi bilganicha faoliyat yuritisa va harakat qilsa, fuqaro yoki jabrlanuvchini huquqlari muayyan doiradagi shaxslar qo‘lida qolishi mumkin, bu esa o‘z o‘zidan samarasizlikni keltirib chiqaradi. To‘g‘ri, ularning faoliyatini tartibga soluvchi Federal qonunlar mavjud, lekin bu qonunlarda ularning qaysi holatlarda qanday faoliyat yuritishi aniq ko‘rsatilmagan, ular o‘zlarining umumiy huquqlaridan “Miranda to‘g‘risidagi qoidalardan” kelib chiqib harakat qiladilar. Shu o‘rinda yana bir fikrni ham aytib o‘tish kerakki, ya’ni agar qonunni nazorat qiluvchi organda hech qanday hisobdorlik va nazorat masalasi bo‘lmasa, hech qaysi organ real tarzda qonunni nazorat qiluvchi organga aylana olmaydi. Shunday ekan, bizningcha qonunlarni nazorat qiluvchi organlar har doim hisobdorlik tartibiga rioya qilishlari lozim.

AQShda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari 1966 yildan Miranda qoidasiga amal qilib keladi. AQSh Oliy sudi tomonidan qarorlashtirilgan “Miranda” qonunida har qanday shaxsni noqonuniy usulda ayblash va so‘roq qilish man etiladi.

Bunda, ya’ni “Miranda” qonuniga ko‘ra so‘roq ayblanuvchini hibsga olgan paytda politsiya xodimlari tomonidan o‘tkaziladigan harakat bo‘lib, uni barcha politsiya xodimlari amalga oshirishi shart. Har qanday politsiyachi ayblanuvchini, gumondorni ushlagach unga savol berishdan oldin 3 ta gapni aytishi shart hisoblanadi. Bular:

1. Sukut saqlash huquqiga egasiz.
2. Hamma aytgan gaplaringiz o‘zingizga nisbatan sudda qarshi ishlatilishi mumkin.

3. So‘roq paytida advokatga ega bo‘lish huquqingiz mavjud kabilardir.

Agar nazar tashlasak, bu qoida ham inson huquqlarini himoyasi bo‘lib, hatto hozirgacha ko‘p davlatlarda amaldadir.

Ijobiy tomoni esa, mazkur xizmatning o‘z ishi va faoliyatiga mustaqil yondosha olishi hamda javobgarlikni xis qilishidadir. Aytaylik, muayyan jinoyat ishini ochishda ular juda mustaqil harakat qiladilar va turli guruhlarga birlashib, turli yo‘nalishlar bo‘yicha ochishga kirishadilar.

**Germaniya Federativ Respublikasi prokuraturasi.** Germaniyada Prokuraturaning faoliyati va ichki tartibi qoidalari 1875-yilda qabul qilingan 201 ta moddadan iborat “Sud tuzilmalari to‘g‘risida”gi Federativ Qonun [8], JPK, “Prokurorning tashkiliy strukturasi to‘g‘risida”gi Nizom bilan tartibga solingan. Bundan tashqari 1975-yil 12-martdagi prokuraturaning faoliyatini tashkillashtirish va uning tarkibi to‘g‘risidagi farmoyish mavjud[9]. Mazkur farmoyish qabul qilingunga qadar Germaniyada fransuz modeli asosida dastlabki tergov olib borilgan, farmoyishga ko‘ra, dastlabki tergovni mukammallashtirish maqsadida politsiya va prokuror terгови bir birini qaytarmasligi uchun dastlabki tergov bekor qilingan va tergov politsiya tomonidan prokuror nazorati ostida amalga oshiriladigan bo‘lgan.

“Sud tuzilmalari to‘g‘risida”gi qonunning 10 bobi Prokuratura deb nomlanib 141-152-moddalarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari bir qancha boshqa moddalarda ham prokuror vakolatlari va majburiyatlariga doir normalar keltirilgan. Ushbu qonunga binan agar Bosh prokuror ishning alohida ahamiyatligi sababli asosiy protsess ochilgunga qadar ayblovni o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa, bu jinoyat Federal Sudda ko‘rib chiqiladi (74a modda 2-qism). Agarda qotillik va GFR Jinoyat kodeksining 129 a-moddasi 1- va 2-qismida ko‘rsatilgan jinoyatlar Germaniyadan tashqarida sodir bo‘lgan bo‘lsa yoki xalqaro tashkilotning faoliyati bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘lsa, Federal Bosh prokuror ishning alohida ahamiyati tufayli ayblovni o‘z zimmasiga oladi (120-modda 2-qism 2-band).

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida GFR prokuraturasi o‘z o‘rnini sekinlik bilan (qiyinchilik) egalladi. Bu holat prokuratura, sud va politsiya o‘rtasidagi doimiy kelishmovchiliklar bilan amalga oshirildi. Tashkiliy jihatdan prokuratura sud tizimining bir qismi hisoblanadi. Germaniya prokuraturasi sud hokimiyatining tarkibidagi organdir. Umumiy sudlovli har bir sudda o‘z prokuraturasi mavjud. Eng quyi sudlarda, ya'ni, ijtimoiy xavflilik darajasi uncha yuqori bo‘lmagan jinoyatlarni ko‘ruvchi sudlarda prokuraturalar tashkil etilmaydi[10]. Ularning vazifalarini bajarish yer sudi qoshidagi prokuraturaga yuklatilgan. Shuning uchun ham Germaniyada prokuratura bilan sudlar faoliyati juda aralashib ketgan hamda yagona strukturaga kiradi.

GFRda 114 ta yer sudi bo‘lib, ular ishlarni birinchi instansiya hamda apellatsiya instansiyasida ko‘rib chiqadi. Har bir yer sudi qoshida o‘z prokuraturasi bor. Har 24 ta

yuqori yer sudining qoshida (bu sudlar birinchi instansiya hamda quyi sudlar qarorlari ustidan shikoyatlarni kassatsion instansiyada ko‘rib chiqadi) yer Adliya vazirligiga bo‘ysunuvchi Bosh prokuratura bor.

Prokuraturaga adliya organlari faoliyatini ta‘minlash vazifasi yuklatilgan bo‘lib, bu vazifani ular sud bilan hamkorlikda va teng huquqlarda bajaradi. Prokurorlar, ularning maqomidan qat‘i nazar, davlat chinovniklari hisoblanadi, ularning rahbariyat bilan munosabatlari ommaviy-huquqiy harakterga ega. Tergovni olib borishda prokuratura ko‘p hollarda politsiyaga tayanadi. Uning xodimlari qonunda “prokuraturaning yordamchi xodimlari”, “prokuror yordamchilari” deb nomlanib, uning ko‘rsatmalarini bajarishi shart.

Shuning uchun ham Germaniyada prokuratura bilan sudlar faoliyati juda aralashib ketgan hamda yagona strukturaga kiradi. GFR prokuraturasining yana bir qiziq tomoni, Federal Bosh prokuror yerlar prokurorlariga ko‘rsatmalar berishga haqli emas. Prokuratura ijro hokimiyati tizimidagi ma‘muriy boshqarmalarga bu boshqarma esa adliya tizimiga kiradi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, GFRda prokuratura ikki tomonlama hokimiyatga bo‘ysunadi, ya‘ni sud hokimiyati va ijro hokimiyatiga kiradi hamda gibril (aralash) tizimni tashkil etadi. Shuningdek, GFRda prokuraturaning asosiy vazifasi jinoiy ta‘qibni amalga oshirish. Prokuratura jinoiy ta‘qibni boshlashga, ish holatini aniqlashga, dalillar yig‘ishga vakolatli va majbur bo‘lgan organdir.

Federal Adliya vaziri federal Bosh prokuror va u bilan ishlaydigan federal prokurorlar ustidan nazorat va rahbarlik qiladi, yer adliya boshqarmasi – bu yerdagi prokuratura organlari ustidan, yer sudlari qoshidagi prokuraturalar bir vaqtning o‘zida yuqori turuvchi yer sudi qoshidagi prokuraturalar Bosh prokurorlari nazorati ostida bo‘ladi. Shuningdek, prokurorlar ustidan ularning rahbarlari ham nazorat olib boradi. GFRda xizmat nazorati deganda xizmat burchlarini rasmiy va faktik bajarilishi ustidan nazorat qilish tushuniladi. Bunga boshliqning qo‘l ostidagi prokurorni ogohlantirish va vazifasini tegishli tarzda bajarilishini talab qilish vakolati ham kiradi. Xizmat nazorati rahbarga prokurorning hisobot berishini ham nazarda tutadi. Germaniyada surishtiruv organi prokuraturadir. Bunday hollarda politsiya barcha materiallarni prokuraturaga yetkazishi shart.

Germaniyaning jinoyat protsessida jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichi mavjud emas. Birinchi tergov harakatlarini o‘tkazish jinoyat ishi boshlanganligini bildiradi. Bunga politsiya yoki prokuraturaning o‘zining xizmat ixtiyori, shaxslarning arizalari, shu hisobda yashirin arizalar, politsiya xabarlar, jamoa rahbarlari, sud organlari shaxsiy ayblovlari bo‘yicha jabrlanuvchining arizalari asos bo‘ladi. Shu yerda ta‘kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 323-moddasida jinoyat ishini anonim xabarlariga asosan qo‘zg‘atishga yo‘l qo‘yilmaydi, jinoyat haqidagi imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan xat, ariza yoki boshqa anonim xabarlar jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun sabab bo‘la

olmasligi ta'kidlangan. Germaniyada esa anonim xatlar asosida ham tergov harakatlarini o'tkazilishi belgilangan. Bizningcha, mazkur masala bo'yicha O'zbekiston qonunchiligidagi yondashuv yaxshiroq.

Yuqoridagi tahlillardan ham ko'rishimiz mumkinki, bugungi kunda nafaqat milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini chuqur tanqidiy tahlil qilish, balki, ilg'or xorijiy tajribani o'rganishni va ularni milliy qonunchiligimizga tatbiq etish zamonning o'zi talab qilmoqda. Qolaversa, bugungi kunda har qanday Qonun va normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishdan oldin jahon tajribasini o'rganib chiqish amaliyoti yaxshi yo'lga qo'yilgan, chunki, sinalgan tajriba asosida ma'lum bir kiritilayotgan yangilikning kamchilik va ijobiy taraflarini tahlil qilish mumkin bo'ladi. Davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijtimoiy islohotlarning negizida asosiy bosh maqsad sifatida yurt tinchligi va xalq farovonligini ta'minlash turadi, shuning uchun ham xalq manfaatlariga mos keluvchi qonun va qoidalarni doimo qayta ko'rib chiqib tahlil etish hamda ilg'orroqlari bilan o'zgartirib to'ldirib takomillashtirib borish davrning taqozosidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O.M.Madaliyev Prokuror nazorati: Darslik. Maxsus qism. - Toshkent: Ilm Ziyosiy, 2012. – B. 113.
2. Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik. - Toshkent: TDYu, 2019. – B. 178.
3. The Constitution of The United States of America. United States Government printing office. Washington: July 25, 2007. p.25.  
<https://www.govinfo.gov/content/pkg/CDOC-110hdoc50/pdf/CDOC-110hdoc50.pdf>
4. Michael J. Ellis. The Origins of the Elected Prosecutor. The Yale law Journal. 121:1528. 2012
5. An Act to establish the Department of Justice. June 22, 1870
6. K.K.Borisovich. Xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2010. – B. 55.
7. Mualliflar jamoasi. Prokuror nazorati. Darslik.- Toshkent: TDYu, 2019. – B. 179.
8. Courts Constitution Act. Federal Law Gazette I p. 1077 9 May 1975.  
[https://www.GESetze-im-internet.de/englisch\\_gvg/englisch\\_gvg.html](https://www.GESetze-im-internet.de/englisch_gvg/englisch_gvg.html)
9. K.K.Borisovich. Xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2010. – B. 225.
10. M.X. Rustambaev, Ye.N. Nikiforova. Pravooxranitelnie organi Respubliki Uzbekistan. Uchebnik dlya vuzov. T., 2003. – C. 38.